

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida  
UO‘K: 338.48-6:502/504(575.1)

**RASULOVA NIGORA YUSUPOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Toshkent – 2025**

## MUNDARIJA

|                |                                                                                                               |            |
|----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                | <b>KIRISH.....</b>                                                                                            | <b>3</b>   |
| <b>I-BOB</b>   | <b>O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b>                                | <b>13</b>  |
| 1.1-§          | Yashil turizm tushunchasining mazmuni, shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....                      | 13         |
| 1.2-§          | Yashil turizmni rivojlantirishning tadqiqot modellari.....                                                    | 25         |
| 1.3-§          | Yashil turizmni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.                                             | 38         |
|                | Birinchi bob bo‘yicha xulosalar .....                                                                         | 48         |
| <b>II-BOB</b>  | <b>O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....</b>                           | <b>49</b>  |
| 2.1-§          | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlanlantirishning asosiy vazifalari va tamoyillari .....                    | 49         |
| 2.2-§          | O‘zbekistonda yashil turizm amaliyotlarini tatbiq etish jarayonlarini rivojlantirish.....                     | 57         |
| 2.3-§          | Yangi O‘zbekistonda yashil turizm salohiyati tahlili                                                          | 70         |
|                | Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar .....                                                                         | 85         |
| <b>III-BOB</b> | <b>YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI</b>                                            | <b>88</b>  |
| 3.1-§          | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishni ekonometrik modellash tirish va prognozlash.....               | 88         |
| 3.2-§          | O‘zbekistonda yashil turizmni ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari..... | 102        |
|                | Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                          | 115        |
|                | <b>XULOSA.....</b>                                                                                            | <b>117</b> |
|                | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>                                                                | <b>121</b> |
|                | <b>ILOVALAR</b>                                                                                               | <b>131</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global darajada keskin iqlim o'zgarishlari natijasida yashil turizmning ahamiyati jadal tarzda oshib bormoqda. Xalqaro darajadagi tadqiqotlar, jumladan Booking.com saytining yangi sayohat hisoboti shuni ko'rsatdiki, "Taxminan 76 foizi sayohatchilar keyingi 12 oy ichida yashil yo'lda sayohat qilishni xohlaydi. Taxminan 81% odamlar atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun sayohat qilish xatti-harakatlarini o'zgartirishga tayyor. Sayohatchilarning yarmidan ko'pi (60%) atrof-muhitni muhofaza qilishni birinchi o'ringa qo'ygan turizm industriyasi korxonalariga ko'proq pul to'lashga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Xodimlarning taxminan 70% korporativ sayohatlar bo'yicha o'z tashkilotining yashil siyosatidan xabardor emas<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, bugungi kunda jahon miqyosida yashil turizmni rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etish masalalari o'zining dolzarbligini namoyon etmoqda.

Jahonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishga doir ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ekologik barqarorlik va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, kam chiqindili va samarali resurs boshqaruviga asoslangan biznes modellarini rivojlantirish, mahalliy mahsulotlar va xizmatlarni afzal ko'ruvchi mehmonxona va restoran tizimini yo'lga qo'yish, yashil transport va infratuzilmalarni rivojlantirish, yashil mehmonxonalar va ekologik standartlarga mos turar joylar barpo etish, yashil turizmni targ'ib etuvchi davlat dasturlari va qonunchilik bazasini mustahkamlash, turizm biznesining ekologik majburiyatlarini kuchaytirish global miqyosda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish, mazkur sohada aholini ish bilan bandligini oshirish va shuning bilan bir qatorda tabiiy turfa xillikni, ya'ni biobalansni saqlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish maqsadida davlat organlarining yashil turizmni rivojlantirish sohasida aholi bilan muloqot qilishining

---

<sup>1</sup><https://globalnews.booking.com/download/31767dc7-3d6a-4108-9900-ab5d11e0a808/booking.com-sustainable-travel-report2023.pdf>.

yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish maqsadida zamonaviy innovatsion ta’lim platformalarni amaliyotga keng tatbiq etishning yaxlit tizimini yaratish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etish orqali ushbu sohaning jadal rivojlanishi, sifatli axborot xizmatlarini ko‘rsatishni ta’minlash muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2023-yilning 16-oktyabr kuni Samarqandda Jahon sayyohlik tashkiloti (YuNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilishida mamlakatlar o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish, “yashil” turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish, “yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar” nominatsiyasini ta’sis etish, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti hamda Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro universiteti hamkorligida Global “yashil” turizm startaplari laboratoriyasini yaratish, innovatsion raqamli platformalarni tatbiq etish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzab ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy mamlakatlar va O‘zbekistonning yashil turizmni shakllantirish, rivojlantirish va unumli foydalanish muammolariga ko‘plab fundamental va amaliy tadqiqotlar bag‘ishlangan. Yashil turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq umumiy masalalar ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, N. D.Thang, N. N. Thanh, Iqbaluddin Abbasi, Nihan Anindyaputra Lanisy, Stella Alvianna, S. Gössling, C.M. Hall, D.Scott, Lyulina E., Hisham Mohammad Al-Smadi, Makhina Buzrukova, B. Janzakov, Alexandru Ilie,s, Vasile Grama, Dorina Camelia Ilies, Katalin Csobán Vargáné and Lóránt Dénes Dávid singari xorijiy mualliflarning asarlari katta ilmiy va metodologik qiziqish uyg‘otadi<sup>2</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida yashil turizmni rivojlantirishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini T.V.Tixonova, V.A. Shenyavskiy<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Eshtayev, A.M.Abduvohidov, I.A.Axmedov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, A.T. Mirzayev, X.F.Ochilova, S.R.Safayeva, O.H.Hamidov, S.Sh.Xalilov, B.Kuziboev, U.R.Matyakubov, B.Sh.Safarov, Z.S. Abriyev singari mamlakatimiz olimlari yashil turizmni rivojlantirish muammosining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy

---

<sup>2</sup> Thang, N. D., Thanh, N. N. (2023) The Factors Influence the Intention to Invest in Green Tourism in Vietnam: Evidence from Business Survey; Iqbaluddin Abbasi. Green Tourism and its Example. <https://iqbalfreetips.com/2023/04/green-tourism-and-its-example.html>. April 14, 2023; Nihan Anindyaputra Lanisy. Crowdfunding as an alternative funding for green tourism. The 5 th International Seminar on Business, Economics, Social Science, and Technology (ISBEST) 2022 e-ISSN 2987-0461 Vol 2 2022; Stella Alvianna. The Role of Servicescape, Green Tourism and Destination Image on Tourists' Return Visit Interest through Satisfaction to Nglanggeran Unung Kidul Tourism Village. International Journal of Advances in Engineering and Management (IJAEM) Volume 6, Issue 01 Jan 2024, pp: 434-444 [www.ijaem.net](http://www.ijaem.net) ISSN: 2395-5252., S. Gössling, C.M. Hall, D.Scott. Tourism and Water; Channel View: Bristol, UK, 2015.

<sup>3</sup> Тихонова Т.В., Щенявский В.А. Зеленый туризм: подходы, региональная оценка, особенности развития // Проблемы развития территории. 2017. № 4 (90). С. 51-66

masalalarni ishlab chiqishga munosib hissa qo'shganlar<sup>4</sup>.

Yashil turizmni iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini baholash, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va vositalarining ilmiy-nazariy, uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish zarur. Bugungi kunda yashil turizmni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini amalga oshirishda tadbirkor va turistlarni yashil turizmga bo'lgan munosabatlari yuzasidan samarali hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish talab qilinmoqda. Yashil turizmga muammolarning ko'pligi, yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi va tahlili asosiy vazifalarini aniqlashga imkonini beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish omillarini aniqlash, yashil turizmni atrof-muhitga salbiy ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

yashil turizm tushunchasining mazmuni, shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o'rganish;

yashil turizmni rivojlantirishning tadqiqot modellarini tadqiq etish;

---

<sup>4</sup> Eshtayev A.A. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: "Ipak yo'li" Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. 8 bet; Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: BuxDU, 2024.-32-b. Abduvohidov A.M., Umirova D.S., Abriyev Z. S. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. – T.:TDIU, 2019. 43 bet; A.T. Mirzayev. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: TDIU, 2021.-32-b., S.R.Safayeva. "Turizmni "Yashillashtirish" Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi?" "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2024-yil 15-may № 93 soni.; Kuziboev B., Saidmamatov O., Khodjaniyazov E., Marty P., Ibragimov J., Davron Ruzmetov D., Matyakubov U.R., Lyulina E., Ibadullaev D. CO2 Emissions, Remittances, Energy Intensity and Economic Development: The Evidence from Central Asia. Economies 12: 95. 2024. <https://doi.org/10.3390/economies12040095>; B.Safarov, et al. Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. Sustainability 2022, 14, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>, O.H. Hamidov. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss. avtoreferati. – Samarqand, 2017.-7 b.

yashil turizmni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish;  
O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning asosiy vazifalari va tamoyillarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda yashil turizm amaliyotlarini tatbiq etish jarayonlarini rivojlantirish asoslarini o‘rganish;

O‘zbekistonda yashil turizmning salohiyati darajasini baholash;  
yashil turizm salohiyati rivojlanishini 2030-yilgacha ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida prognozlash.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib, milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos tarmog‘i sifatidagi O‘zbekiston Respublikasida joylashgan mehmonxona biznesi subyektlari faoliyati va hududlardagi tabiat yashil destinatsiyalarini shakllantirish jarayonlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, yashil turizmni rivojlantirish vositalarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash jarayonlarida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “yashil turizm” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ekologik ijtimoiy mas’uliyatli norezident va rezident turistlar tomonidan yashil turizm destinatsiyalariga sayohat qilishda yashil sertifikatlariga ega mehmonxonalarni tanlashni o‘z ichiga oluvchi, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarni mujassamlashtiruvchi, mahalliy til, urf-odat, madaniyat, hudud oraliq masofasi, sayohatni tashkil etishdagi rasmiyatchilik darajasi kabi omillarning ta’siri bo‘yicha yuqori manfaatdorlik va qulaylikni ta’minlovchi jarayon jihatidan takomillashtirilgan;

yashil turizm tadqiqot modellarini rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi tamoyillariga asoslangan strukturaviy tenglama modellashtirish usulida rivojlantirish orqali sayyohlarning “ekologik ongli niyati”ni shakllantiruvchi ko‘plab omillar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘liq baholash hamda mahalliy aholi farovonligini oshirish va ekologik muammolarni bartaraf etish taklifi ishlab chiqilgan;

resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish va turizm sohasining kengayishi ta’sirida kelib chiqadigan ekologik ziyonni kamaytirishda “Ekologik Kuznes egri chizig’i (EKC)” gipotezasi yordamida yashil turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarining ahamiyatlilik darajasini baholash asoslangan;

O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda turizmni rivojlantirish va yashil rivojlanish samaradorligi omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni modifikatsiyalashgan barqaror o‘shishga ta’sirini baholash modellari asosida asosiy faoliyatning 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda turizmning “yashil turizm”, “ekologik turizm” va “barqaror turizm” turlarining umumiylik, xususiylik jihatlari qiyosiy tahlil qilingan;

rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi modeliga barqaror turizmni ta’minlovchi aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish, yashil joylashtirish vositalari, hududlarni yashil rivojlanishi, mahalliy aholi bandligini ta’minlash, alohida muhofaza qilinadigan hududlarda chiqindilarni yig‘ish, hududlarda velosipedda sayr qilsih, elektr transport, yashil turizm savodxonligini oshirish, milliy madaniyat va mahalliy urf-odatlarini keng targ‘ib qilish, energiya va suv resurslarini tejash kabi atrof-muhitga zararni kamaytirishni ta’minlovchi omillarni yashil turizm tadqiqot omillariga qo‘shish zarurligi asoslantirilgan;

hududlarda yashil turizm samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar baholangan;

yashil turizm sohasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasining o‘zgarish prognozlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishi natijalarining ishonchliligi foydalanilgan xorijiy tadqiqot usullarining sinovdan o'tganligi hamda uni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish imkonining yuqoriligi, shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik va idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tavsiflovchi statistika, panel vektor autoregressive model va Super-EBM modellaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan yashil turizmni rivojlantirish asosini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini kengaytirish va boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi uslubiy ishlanmalardan yashil turizmni rivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqishda, mamlakat hududidagi yashil turizmni boshqarish organlari va yashil turizm obyektlari hisoblangan korxonalar tomonidan O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yashil turizmni rivojlantirishning barqaror dinamikasiga erishish asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "yashil turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ekologik ijtimoiy mas'uliyatli norezident va rezident turistlar tomonidan yashil turizm destinatsiyalariga sayohat qilishda yashil sertifikatlariga ega mehmonxonalarni tanlashni o'z ichiga oluvchi, huquqiy, iqtisodiy va

ijtimoiy tavsiflarni mujassamlashtiruvchi, mahalliy til, urf-odat, madaniyat, hudud oraliq masofasi, sayohatni tashkil etishdagi rasmiyatchilik darajasi kabi omillarning ta'siri bo'yicha yuqori manfaatdorlik va qulaylikni ta'minlovchi jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Barqaror turizmni rivojlanishi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 28-apreldagi 119-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ekologik ijtimoiy mas'uliyatli norezident va rezident turistlar tomonidan yashil turizm destinatsiyalariga sayohat qilishda yashil sertifikatlariga ega mehmonxonalarni tanlashni o'z ichiga oluvchi omillarning ta'siri bo'yicha yuqori manfaatdorlik va qulaylikni ta'minlovchi jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "yashil turizm" tushunchasiga oid nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

yashil turizm tadqiqot modellarini rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi tamoyillariga asoslangan strukturaviy tenglama modellashtirish usulida rivojlantirish orqali sayyohlarning "ekologik ongli niyati"ni shakllantiruvchi ko'plab omillar o'rtasidagi munosabatlarni to'liq baholash hamda mahalliy aholi farovonligini oshirish va ekologik muammolarni bartaraf etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan Respublikada turizmni rivojlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 2-dekabrdagi 03-12-17-8736-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yashil turizmning ijtimoiy ahamiyati yanada oshirish, xususan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasini yaxshilash, energiya va suvni tejash, elektr transport vositalarini amaliyotga tatbiq etishga erishish, iqtisodiy nuqtai nazardan turistlarning yangi segmentini shakllantirish, ya'ni yashil turistik

mahsulotni iste'mol qilishga qiziquvchi turistlar sonini ko'paytirish imkoni yaratilgan;

resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish va turizm sohasining kengayishi ta'sirida kelib chiqadigan ekologik ziyonni kamaytirishda "Ekologik Kuznets egri chizig'i (EKC)" gipotezasi yordamida yashil turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarining ahamiyatlilik darajasini baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan Respublikada turizmni rivojlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 2-dekabrdagi 03-12-17-8736-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yashil turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini atrof-muhitga salbiy ta'sirini baholash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda turizmni rivojlantirish va yashil rivojlanish samaradorligi omillari o'rtasidagi bog'liqlikni modifikatsiyalashgan barqaror o'sishga ta'sirini baholash modellari asosida asosiy faoliyatning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan Respublikada turizmni rivojlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 2-dekabrdagi 03-12-17-8736-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2030-yilga borib turizm xizmatlari eksportini 4,7 martaga, xorijiy turistlar sonini 3,2 martaga oshirish imkoni aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha uning asosiy g'oyalari va mazmunini aks ettirgan jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan respublika jurnallarida 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta, shuningdek, ilmiy amaliy konferensiyalarda 4 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.